UO‘K: 630*232.3:582.632.2
JEL klassifikatsiyasi: Q23, O53, Q56

O‘RMON URUG‘CHILIK UCHASTKALARIDAGI QORA SAKSOVULNING TAKSATSION KO‘RSATKICHLARI

XAMROYEV XUSEN FATULLAYEVICH
Toshkent davlat agrar universiteti
O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasi dotsenti
E-mail: husenhamroyev3@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0274-900X

Annotatsiya. Maqolada cho‘l hududlarida o‘rmon hosil qiluvchi turlardan biri bo‘lgan qora saksovulning urug‘chiligini rivojlantirish maqsadida barpo etilgan maydonlardagi taksatsion ko‘rsatkichlari keltirib o‘tilgan. Tajriba uchun 9 ta o‘rmon urug‘chilik uchastkalari va 2 ta nazorat varianti tanlab olingan bo‘lib, ushbu maydonlardagi qora saksovulning balandligi 202,6-356,9 sm, asosiy tanasining diametri 4,18-9,14 sm, shox-shabba diametri Sh-J yo‘nalishida 114,2-286,4 sm, Shq-G‘ yo‘nalishida 86,6-243,2 sm, shox-shabba maydoni 0,79-5,50 m² bo‘lganligi aniqlangan.
Kalit so‘zlar: o‘rmon urug‘chilik uchastkasi, qora saksovul, taksatsion ko‘rsatkichlar, 1 gektardagi miqdori, balandlik, asosiy tana diametri, shox-shabba diametri, shox-shabba maydoni.

Аннотация. В статье приведены таксационные показатели черного саксаула, одного из видов, создающих леса в пустынных районах, на площадках, созданных с целью развития его семеноводства. Для эксперимента было выбрано 9 лесосеменных участков и 2 контрольных варианта, при этом высота черного саксаула на этих площадках составила 202,6-356,9 см, диаметр основного ствола — 4,18-9,14 см, диаметр кроны в направлении С-Ю — 114,2-286,4 см, в направлении СЗ-ЮВ — 86,6-243,2 см, площадь кроны — 0,79-5,50 м².
Ключевые слова: лесосеменная участка, черный саксаул, таксационные показатели, количество на 1 гектар, высота, диаметр основного ствола, диаметр кроны, площадь кроны.

Abstract. The article presents growth metrics for black saxaul, one of the species that create forests in desert areas, based on plots established for the purpose of developing its seed production. For the experiment, 9 forest seed plots and 2 control plots were selected. On these plots, the height of black saxaul ranged from 202.6 to 356.9 cm, the main trunk diameter was 4.18–9.14 cm, the crown diameter from north to south was 114.2–286.4 cm, from northwest to southeast it was 86.6–243.2 cm, and the crown area was 0.79–5.50 m².
Keywords: seed forest area, black saxaul, inventory indicators, number per hectare, height, main trunk diameter, crown diameter, crown area.

KIRISH

Respublikamizda mavjud o‘simliklarning urug‘chiligi o‘rganish va ularning urug‘chilik bazalarini shaklllantirishga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PF-46-son farmoni, hamda 2024 yil 21 oktyabrda “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish yuzasidan o‘tgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan asosiy vazifalarda Buxoro va Navoiy viloyatlarining cho‘l hududlarida yashim maydonlarni ko‘paytirish dasturini ishlab chiqish belgilab o‘tilgan. Bu esa ushbu hududlarda o‘sib rivojlanayotgan cho‘l daraxt-butalari ko‘chatlarini yanada ko‘proq yetishtirish va buning uchun zarur bo‘ladigan urug‘chilik bazalarini yaratishni taqozo etadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi vaqtda o‘rmon daraxt butalarining iqlim o‘zgarishlari va tashqi muhit omillariga chidamli navlarini yaratish hamda ularning urug‘chilik, ko‘chatchilik masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Siyrak o‘rmonlarda o‘rmon urug‘chiligi ishlarini yaxshilash maqsadida doimiy o‘rmon urug‘chilik maydonlarini (DO‘UU) tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ular o‘rmon xo‘jaligini genetik jihatdan sog‘lom, yuqori sifatli urug‘lar bilan ta’minlaydigan urug‘ bankini tashkil qilishi kerak. Chunki DO‘UU barpo etilishining sabablari daraxtzorlar orasida yovvoyi zararkunandalarga va o‘rmon kasalliklariga qarshi genetik bardoshli, yuqori sifatli sog‘lom urug‘larga bo‘lgan ehtiyojning ortishi mavjud. Shuningdek, daraxtlarning tuzga chidamliligi va ularning yuqori baholash ko‘rsatkichlari ham bor [1].

DO‘UUda urug‘ yig‘ishni markazlashtirish urug‘ tarkibini yaxshilash, hosildorligini va sifatini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, yangi DO‘UU larni yaratishda yoki daraxtzorlarda plyusli daraxtlarini tanlashda urug‘larni ekish yoki ma’lum irsiy belgilariga ega nav materiallarini ekish orqali seleksion asosga o‘tish dolzarb hisoblanadi. Orol dengizining qurigan tubida ilgari o‘rmon ekish ishlari Kizilqum cho‘lidan yig‘ilgan urug‘lar bilan amalga oshirilgan. Buning uchun esa Qizilqum hududida o‘rmon zararkunandalari va kasalliklariga chidamli saksovul daraxtlari tanlangan. Tanlangan ekstremal sharoitlarga, zararkunandalar va kasalliklarga chidamli bo‘lish bilan birga, tuproq sho‘rlanishi va qurg‘oqchilikka ham chidamli ekanligi aniqlangan. Orol dengizining qurigan tubida o‘sayotgan 8 yoshga yetgan saksovul o‘simliklari 5 metrgacha, shox-shabbasining diametri esa taxminan 400 sm ga yetgan. Bunday saksovul daraxtzorlari doimiy o‘rmon urug‘lik maydonlari sifatida xizmat qilib, hozirda ushbu maydonlardan urug‘ yig‘ib olish ishlari amalga oshirilmoqda. Orol dengizi qurigan tubidagi daraxtzorlarda o‘rmon urug‘lik bazasini yaratish maqsadida yuqori genetik xususiyatlarga ega qora saksovul o‘rmonlarini ajratish uchun 20 000 gektar o‘rmon maydoni o‘rganilib, 14 316 ta yuqori genetik xususiyatlarga ega va zararkunandalarga hamda kasalliklarga chidamli saksovul daraxtlari plyusli daraxt sifatida ajratib olingan. Tajribalarda saksovuldan yuqori hosildorlikdagi urug‘ olish uchun daraxtzor zichligi 0,2-0,3 dan oshmasligi aniqlangan [2-4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Saksovul o‘rmonlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish jarayonida uning balandligi, shox-shabbasining diametri va ildiz bo‘g‘zining diametri bo‘yicha o‘lchandi. Daraxtlar o‘sish darajasi bo‘yicha katta, o‘rta va kichik qilib, shuningdek holati bo‘yicha sog‘lom, kasallangan, zararkunandalar va kasalliklar bilan zararlanish darajasi aniqlab olindi. Tanlangan uchastkalarning maydoni Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan va Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligining o‘rmon tuzish materiallari asosida, qora saksovulning 1 gektardagi miqdori 10 m^2 o‘lchamli tajriba maydonchalaridagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida aniqlab olindi.

Daraxtning balandligi 0,1 metrgacha aniqlikda reyka bilan, joriy o‘sishi bir santimetrgacha aniqlikda o‘lchandi. Ildiz bo‘g‘zining diametri o‘lchov vilkasida 0,5 sm aniqlik bilan o‘lchandi. Daraxt shox-shabbalari diametri bir-birini kesib o‘tgan ikki yo‘nalish bo‘yicha 0,1 metrgacha aniqlikda o‘lchandi. Saksovulning ildiz bo‘g‘zi tomoni qumga ko‘milgan bo‘ladi. Bunday xolatda o‘lchash oldidan u tozalandi. Daraxtning yoshi tabiy sharoitda asosiy butoqlarning o‘ziga xos ravishda ayri o‘sishi bilan aniqlandi.

Taksatsion ko‘rsatkich bo‘yicha ajratib olingan daraxtni baxolash daraxtzordagi o‘rtacha daraxtga taqqoslab amalga oshirildi. Agar u qalin daraxtlar guruxida bo‘lsa, bunda daraxtlar siyraklashtirildi. Shuningdek, G. P. Ozolin taklif etgan saksovullar modelining taksatsion ko‘rsatkichidan xam daraxtlarni baxolashda foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

O‘rmon xo‘jaligi agentligi va O‘rmon urug‘chilik markazining Buxoro hududiy o‘rmon urug‘chiligi laboratoriyasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning tahlili Qorako‘l va Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi maydonlarida o‘rmon urug‘chilik uchastkalarini tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotlarimizda Buxoro viloyatining Qorako‘l va Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi hududidagi mavjud daraxtzorlarni tahlil etish, daraxt-butalarni seleksion baholash orqali tajriba maydonlari tanlab olindi. Tanlab olingan tajriba maydonlaridagi daraxt-butalarning hosildorligi 4-5 balni, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanish darajasi 1 ballni tashkil etdi.

Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligining umumiy maydoni 67 624,7 gektarni tashkil etib, o‘rmon bilan qoplangan maydoni 43 817,8 gektar (64,8%) ni tashkil etadi. Xo‘jalik ikkita Moxonko‘l va Do‘rmon o‘rmonchilik bo‘limlaridan tashkil topgan bo‘lib, Moxonko‘l o‘rmonchilik bo‘limining maydoni 34 544,0 gektar (51,1%), Do‘rmon o‘rmonchilik bo‘limining maydoni esa 33 080,7 gektar (48,9%), o‘rmon bilan qoplangan maydon Moxonko‘l o‘rmonchilik bo‘limida 21 767,1 gektar (49,7%), Do‘rmon o‘rmonchilik bo‘limida esa 22 050,9 gektar (50,3%) ni tashkil etadi. O‘rmon xo‘jaligining umumiy maydoni Moxonko‘l o‘rmonchilik bo‘limidagi 13 ta, Do‘rmon o‘rmonchilik bo‘limidagi 15 ta kvartal bo‘yicha taqsimlangan. Xo‘jalikdagi o‘rmon bilan qoplangan maydonlarning asosiy qismi 28 ta kvartal bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, “yashil qalqon” aylanmasining 13, 14, 15 kvartallaridagi saksovulzorlar yaxshi o‘sib rivojlanmoqda. Ushbu “Yashil qalqon” aylanmasida jami 41894,74 gektar saksovulzor mavjud bo‘lib, shundan yosh saksovulzorlar 23254 gektar, o‘rta yoshli 1100,3 gektar, ulg‘ayish yoshidagi saksovulzor 1860 gektar va pishib yetilgan saksovulzor 1180 gektarni tashkil etadi.

Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligining o‘rmon bilan qoplangan yer maydonidagi daraxtzorlar asosan o‘rta yoshdagi va pishib yetilayotgan guruhga mansub bo‘lib, ushbu maydon 30 019,3 (68,5%) ni tashkil etadi. Mavjud daraxtzorlar daraxtlar yosh sinfi bo‘yicha asosan IV va V yosh sinfiga mansub bo‘lib, ular 40 053,0 gektarni (91,4%), xo‘jalikdagi umumiy daraxtzorning

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

23 575,1 gektarini (53,8%) esa qora saksovul daraxtzorlari tashkil etadi va uning mahsuldorlik sinfi II ga, to‘liqligi esa 0,3 ga teng hisoblanadi. (2-ilovaga qarang).

Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligining o‘rmon fondi umumiy yer maydoni 76036 gektarni tashkil etib, uning 73067,6 gektari o‘rmonli yerlar (o‘rmon bilan qoplangan maydon 59428,7 ga, madaniy o‘rmonlar 7620,1 ga, o‘rmon ko‘chatxonasi 28,8 ga, siyrak daraxtzorlar 9028,0 ga, yalangliklar 4582,1 ga), 2668,4 gektari o‘rmonsiz maydonlarni tashkil etadi.

Xo‘jalikdagi o‘rmonli yerlar umumiy o‘rmon fondi yerlarining 96,64%, o‘rmon bilan qoplangan maydonlar esa 86,40% ga teng. O‘rmon bilan qoplangan maydondagi daraxtzorlarning 2267 gektari yoki 3,8% qismi yosh daraxtzor, 49429,7 gektari yoki 83,7% qismi o‘rta yoshdagi daraxtzor, 7432 gektari yoki 12,5% qismi esa pishib yetilayotgan daraxtzor hisoblanadi. Ushbu o‘rmon bilan qoplangan maydondagi daraxtzorlarning 4,1 gektari I yosh sinfiga, 9 gektari II yosh sinfiga, 53706,7 gektari III yosh sinfiga, qolgan 5709 gektari esa V yosh sinfiga, o‘rmon mahsuldorligi esa III sinfga, to‘liqlik bo‘yicha 32383,3 gektar maydon 0,3 to‘liqlikli, 41952 gektari esa 0,4 to‘liqlikli ekanligi u yerda doimiy o‘rmon urug‘chilik uchastkalarini tashkil etish imkoniyatini beradi.

Qorako‘l va Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaliklarida doimiy o‘rmon urug‘chilik uchastkalarini shakllantirish uchun mavjud saksovulzorlar bo‘yicha baholash ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda daraxtzorlarning mahsuldorligi, o‘rtacha yoshi, tarkibi, loyihaviy to‘shama miqdori hamda o‘rtacha hosildorligi tahlil etildi.

O‘rmon xo‘jaligi agentligi va hududiy o‘rmon urug‘chilik laboratoriyasi ma’lumotlari hamda o‘rmon xo‘jaligidagi o‘rmonlarning holatidan kelib chiqqan holda ushbu hududlarda doimiy o‘rmon urug‘chilik uchastkalarini barpo etish mumkin bo‘ladi. Kuzatuvlarimiz natijasida Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligining Moxonko‘l o‘rmon bo‘limining 3 ta maydonida va Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligining Og‘ar o‘rmonchilik bo‘limininGESa 5 ta maydonida o‘rmon urug‘chilik uchastkalari tashkil etildi.

Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi Moxonko‘l o‘rmonchilik bo‘limining 13 kvartal 6-aylanmasidagi 330 gektar (1-O‘UU), 14 kvartal 8-aylanmasidagi 350 gektar (2-O‘UU), 15 kvartal 2-aylanmasidagi 342 gektar (3-O‘UU), Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi Og‘ar o‘rmonchilik bo‘limining 19 kvartal 10-aylanmasidagi 415 gektar (4-O‘UU), 11-aylanmasidagi 389 gektar (5-O‘UU), 12-aylanmasidagi 463 gektar (6-O‘UU), 20 kvartal 19-aylanmasidagi 388 gektar (7-O‘UU) va 21 kvartal 19-aylanmasidagi 388 gektar (8-O‘UU) hamda Qorako‘l tumanida joylashgan Shibirg‘onota ziyoratgohi hududidagi 3 gektarli (9-O‘UU) maydoni saksovulning urug‘chilik uchastkalarini tashkil etish uchun tanlab olindi.

O‘rmon urug‘chilik uchastkalari uchun tanlangan uchastkalar bo‘yicha bir gektardagi daraxtlar miqdori Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida 414±34 dona/ga dan 434±26 dona/ga gacha bo‘lgan bo‘lsa, Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida esa 350±42 dona/ga dan 428±54 dona/ga gacha ekanligi aniqlandi.

1-jadval

O‘rmon urug‘chilik uchastkalaridagi qora saksovulning taksatsion ko‘rsatkichlari (2023-2025 yy.)

№	Uchastkalar	Umumiy maydoni, ga	1 gektardagi miqdori, dona/ga	Daraxtlarning o‘rtacha taksatsion ko‘rsatkichlari				
				balandligi, sm	asosiy tana diametri, sm	shox-shabba diametri, sm		shox-shabba maydoni, m²
						Sh-J	Shq-G‘	
1	Nazorat-1	570	484±34	213,1±1,6	4,72±0,22	128,4±3,9	98,2±7,1	1,01
2	1-O‘UU	330	422±34	248,7±2,4	6,86±0,14	234,3±8,4	202,8±6,2	3,75
3	2-O‘UU	350	434±32	263,2±4,2	7,04±0,21	243,5±6,1	218,6±4,7	4,19
4	3-O‘UU	342	414±26	231,7±2,3	5,92±0,11	212,5±4,7	196,4±5,4	3,28
5	Nazorat-2	860	486±37	202,6±2,8	4,18±0,22	114,2±3,8	86,6±4,3	0,79
6	4-O‘UU	415	387±42	334,2±3,4	8,22±0,18	254,2±5,4	228,5±6,8	4,57
7	5-O‘UU	389	416±38	326,7±2,6	8,02±0,12	248,8±4,2	226,6±7,2	4,44
8	6-O‘UU	463	428±54	342,1±4,1	8,46±0,24	262,1±4,8	234,6±5,2	4,84
9	7-O‘UU	412	404±21	274,4±3,6	7,16±0,16	245,3±4,3	222,4±3,6	4,29
10	8-O‘UU	388	392±18	268,1±5,3	7,11±0,12	244,8±5,3	220,4±4,3	4,25
11	9-O‘UU	3	350±10	356,9±8,2	9,14±0,22	286,4±6,2	243,2±3,8	5,50

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Tanlab olingan maydonddagi daraxtlarning o‘rtacha balandligi Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligida 231,7±2,3 sm dan 263±4,2 sm gacha, Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligida 268,1±5,3 sm dan 342,1±4,1 sm gacha, asosiy tananing o‘rtacha diametri Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida 5,92±0,11 sm dan 7,04±0,21 sm gacha, Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligida esa 7,11±0,12 sm dan 8,46±0,24 sm gacha o‘lchamga ega ekanligi aniqlandi.

Daraxtlar shox-shabbasining o‘rtacha diametri shimol-janub yo‘nalishi bo‘yicha Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida 212,5±4,7 sm dan 243,5±6,1 sm gacha, Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida 244,8±5,3 sm dan 262,1±4,8 sm gacha bo‘lgan bo‘lsa, sharq-g‘arb yo‘nalishi bo‘yicha Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida 196,4±5,4 sm dan 218,6±4,7 sm gacha, Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida 220,4±4,3 sm dan 234,6±5,2 sm gacha, daraxtlar shox-shabbasining umumiy maydoni esa Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida 3,28 m^2 dan 4,19 m^2 gacha, Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligida esa 4,25 m^2 dan 4,84 m^2 gacha o‘lchamni tashkil etdi. Tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichlarni solishtirish maqsadida Qorako‘l va Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaliklari hududida nazorat varianti uchun maydonlar ajratildi.

Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligining 570 gektarli o‘rmon massividagi nazorat varianti (Nazorat-1) da 1 gektardagi daraxtlar soni 984±34 dona/ga (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 370-472 dona/ga miqdorda ko‘p), daraxtlarning o‘rtacha balandligi 213,1±1,6 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 17,4-50,1 sm kam), asosiy tananing diametri 4,72±0,22 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 1,2-2,32 sm kam), shox-shabba diametri Sh-J yo‘nalishida 128,4±3,9 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 84,1-115,1 sm ga kam), Shq-G‘ yo‘nalishida 98,2±7,1 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 98,2-120,4 sm kam), shox-shabba maydoni esa 1,01 m^2 ni (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 2,27-3,18 m^2 kam), Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligining 860 gektarli o‘rmon massividagi nazorat varianti (nazorat-2) da 1 gektardagi daraxtlar soni 1022±37 dona/ga (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 494-535 dona/ga miqdorda ko‘p), daraxtlarning o‘rtacha balandligi 202,6±2,8 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 65,5-139,5 sm kam), asosiy tananing diametri 4,18±0,22 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 2,93-4,28 sm kam), shox-shabba diametri Sh-J yo‘nalishida 114,2±3,8 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 100,6-147,9 sm ga kam), Shq-G‘ yo‘nalishida 86,6±4,3 sm (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 133,8-158,0 sm kam), shox-shabba maydoni esa 0,79 m^2 ni (tanlangan maydonlardagi ko‘rsatkichdan 3,46-4,05 m^2 kam) tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichlao‘rmon urug‘chilik uchastkalarini tashkil etish uchun qo‘yiladigan talablarga mos kelmaydi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

XULOSA

Urug‘chilik uchastkalaridagi Qora saksovulning taksatsion ko‘rsatkichlari tahlili natijasida balandligi 231,7-356,9 sm, asosiy tanasining diametri 5,92-9,14 sm, shox-shabba diametri Sh-J yo‘nalishida 212,5-286,4 sm, Shq-G‘ yo‘nalishida 196,4-243,2 sm, shox-shabba maydoni 3,28-5,50 m^2 bo‘lganligi aniqlandi. Bu esa ushbu daraxtlardan o‘rmon barpo etish uchun sifatli urug‘ xomashyosi olish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI

1. Бакиров Н. Ж., Новицкий З. Б., Хамзаев А. Х. Перспективы возрождения осушенного дна Аральского моря // Экологический вестник Узбекистана. 2019. № 9. С. 6–7

2. Новицкий З. Б. Экономическая и экологическая прибыль // Сельское хозяйство Узбекистана. 2013. № 8. С. 24,

3. Новицкий З. Б. Новый подход к проведению лесомелиоративных работ на осушенном дне Аральского моря // Проблемы рационального использования земельных ресурсов : матер. науч.-произв. кон. (г. Ташкент, 11–12 сентября 2007 г.). С. 50–53.

4. Новицкий З. Б. Нет леса – посади, мало леса – береги, много леса – сохрани // Экологический вестник Узбекистана. 2015. № 3. С. 50–52.

5. Новицкий З. Б., Бекмирзаева И. М., Ганиев М. Ш. [и др.]. Опыт борьбы с опустыниванием и деградацией земель // Стабилизация песков и обогащение пустынных пастбищ. Ташкент, 2012. 84 с

6. Новицкий З. Б., Хамзаев А. Х., Бакиров Н. Ж., Атаджанова Г. Х. Создание постоянных лесосеменных участков саксаула (Haloxylon aphyllum (Minkw.)) на осушенном дне Аральского моря // Russian Journal of Ecosystem Ecology. 2022. Vol. 7 (2)

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy